



## DYNAMICS OF MULTI-SECTOR COOPERATIVE DEVELOPMENT IN THE TURKESTAN ASSR UNDER THE NEW ECONOMIC POLICY

**Ahrorbek Ganiyev**

Assistant

Tashkent Institute of Management and Economics

Tashkent, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** New Economic Policy (NEP), Turkestan ASSR, cooperative construction, multi-sector cooperation, consumer societies, production cooperatives, economic liberalization, market-oriented products, local economic management, agrarian reforms, cooperative dynamics.

**Received:** 17.01.26

**Accepted:** 18.01.26

**Published:** 19.01.26

**Abstract:** The article analyzes, based on historical sources, the formation and stages of development of multi-sector cooperative construction in the territory of the Turkestan ASSR during the period of the New Economic Policy (NEP), as well as its impact on economic and social processes. From a scholarly perspective, the study examines the mechanisms of cooperative activities in trade, agriculture, handicrafts, credit and finance, consumer services, and production sectors, along with their integration into systems of self-governance and economic management in accordance with NEP principles.

## YANGI IQTISODIY SIYOSAT SHAROITIDA TURKISTON ASSRDA KO'P TARMOQLI KOOPERATIV QURILISH DINAMIKASI

**Ahrorbek G'aniyev**

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti asistenti

Toshkent, O'zbekiston

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Yangi iqtisodiy siyosat (NEP), Turkiston ASSR, kooperativ qurilish, ko'p tarmoqli kooperatsiya, iste'mol jamiyatlari, ishlab chiqarish kooperativlari, iqtisodiy erkinlashtirish, bozorbop mahsulot, mahalliy xo'jalik yuritish, agrar islohotlar, kooperativ dinamikasi.

**Annotatsiya:** Maqolada Yangi iqtisodiy siyosat (NEP) davrida Turkiston ASSR hududida ko'p tarmoqli kooperativ qurilishning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va uning iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarga ko'rsatgan ta'siri tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda kooperativlarning savdo, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, kredit-moliya, iste'mol va ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat

yuritish mexanizmlari, ularning NEP tamoyillari asosida o'zini-o'zi boshqarish va xo'jalik yuritish tizimi bilan uyg'unlashuvi ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi.

## ДИНАМИКА МНОГООТРАСЛЕВОГО КООПЕРАТИВНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В ТУРКЕСТАНСКОЙ АССР В УСЛОВИЯХ НОВОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ

*Ахрорбек Ганиев*

*Ассистент*

*Ташкентского института менеджмента и экономики*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Новая экономическая политика (НЭП), Туркестанская АССР, кооперативное строительство, многоотраслевая кооперация, потребительские общества, производственные кооперативы, экономическая либерализация, рыночная продукция, местное хозяйство, аграрные реформы, динамика кооперации.

**Аннотация:** В статье на основе исторических источников анализируются процессы формирования и этапы развития многоотраслевого кооперативного строительства на территории Туркестанской АССР в период Новой экономической политики (НЭП), а также его влияние на экономические и социальные процессы. В исследовании с научной точки зрения освещаются механизмы деятельности кооперативов в торговле, сельском хозяйстве, ремесленничестве, кредитно-финансовой, потребительской и производственной сферах, а также их интеграция с системой самоуправления и хозяйствования на основе принципов НЭПа.

**Kirish.** Yangi iqtisodiy siyosat (NEP)ga o'tilgandan so'ng kooperatsiyani davlat tasarrufidan chiqarish va kooperativ tizimni nomarkazlashtirish amalga oshirildi. Uning barcha bo'g'inlari xo'jalik hisobiga o'tkazila boshladi va shu tariqa u moliyaviy mustaqillikka ega bo'ldi. 1921-yil bahorida RSFSR Xalq Komissarlari Soveti qishloq xo'jalik kooperatsiyasini asosan ta'minot xususiyatida bo'lgan "Sentrosoyuz" tizimidan ajratish to'g'risida qaror qabul qildi [1;17]. 1921-yil avgustda Butunrossiya qishloq xo'jaligi kooperatsiyasi ittifoqi – "Selskosoyuz" tuzildi.

Yangi iqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy qismi kooperativ harakatni faol rivojlantirish bo'ldi. Yangi iqtisodiy siyosatga o'tilgach, uning tamoyillari kooperativlarga ham joriy etildi. RSFSR Xalq Komissarlari Sovetining 1921- yil 7-apreldagi qaroriga ko'ra, matlbuet kooperatsiyasi Oziq-ovqat xalq komissarligi tasarrufidan chiqarildi. Shu bilan birga, ayrim cheklovlar bilan ixtiyoriy kooperativlar tashkil etishga ruxsat berildi. Xalq Komissarlari

Sovetining 1921-yil 26-iyuldagi farmoni asosida ular yana o'z-o'zini moliyalashtirish tizimiga o'tkazildi.

Muhokama va natijalar. Yangi iqtisodiy siyosat joriy etilishi bilan dehqonlarni kooperativlarga birlashtirish jarayoni keng tus oldi. Butunrossiya Markaziy Ijroiya Komitetining 1921-yil 16-avgustdagi dekretida kooperativlar quyidagi maqsadlarda tashkil etilishi zarurligi qayd etildi: "qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini birgalikda yuritish, a'zolarining mehnatini tashkil etish, ularni qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar, urug'liklar, o'g'itlar va boshqa ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlash, shuningdek, dehqonchilik mahsulotlarini qayta ishlash va sotish, hamda a'zolar tomonidan ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari miqdorini ko'paytirish va sifatini yaxshilashga qaratilgan boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish" [2;88].

1921-yilning mart-iyul oylari davomida sovet hukumati tomonidan bir qator dekret va qarorlar qabul qilindi. Ularga ko'ra, mahsulot ayirboshlash erkin pul oldi-sotdisi bilan almashtirildi, xususiy savdo, xususiy tadbirkorlik, kichik sanoat korxonalarini ijaraga olish va shu kabilarga ruxsat berildi. Shuningdek, moliyaviy siyosat sohasida zaruriy o'zgarishlar amalga oshirildi, bu tadbirlar keyingi yillarda pul islohotini o'tkazish uchun zamin yaratdi.

Shuni ta'kidlash joizki, 1921-yilda Turkistonda qishloq xo'jaligi kooperatsiyasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishi ishlab chiqarish kooperatsiyasi, kollektiv xo'jaliklari (artellar, kommunalar)ni tashkil etishdan iborat edi. Bu ko'p jihatdan respublikaning bir qancha rayonlarida yer-suv islohoti o'tkazilishi bilan bog'liq edi. Yersiz va kam yerli dehqonlar ko'pincha birlashib, kolxozlar tuzish istagini bildirganlar. Ayniqsa, Farg'ona oblastida dehqonlarni kolxozlarga birlashtirish jarayoni jadal kechdi. 1921-yilning birinchi yarmida oblastning yer-suv islohoti o'tkazilgan asosiy rayonlari – Jalolobod va Konibodom rayonlarida 265 ta qishloq xo'jalik artellari tashkil etilib, ulardan 200 tasi Jalolobod rayoni volostlariga to'g'ri kelgan [3;12].

Umuman, Turkiston respublikasida yangi iqtisodiy siyosat "sotsialistik" qurilish vazifalarini hal etish bilan bir qatorda, yer masalasini ham yechishi, yer-suv islohotini oxiriga yetkazishi, yerdan foydalanish bo'yicha o'rta asrlardan saqlanib qolgan odat va an'analarni butunlay tugatishi lozim edi.

1921-yil iyulda bo'lib o'tgan Turkiston kompartiyasining VIII Farg'ona oblast konferensiyasi dehqonlarning qishloq xo'jalik artellari va kommunalarini tashkil etishga bo'lgan intilishi tobora kuchayib borayotganini qayd etdi. Konferensiya ularning g'oyat katta ahamiyatini ta'kidlab, partiya va sovet organlarini bu xo'jaliklarni qo'llab-quvvatlashga va ularga har tomonlama yordam ko'rsatishga chaqirdi. Shu bilan birga, konferensiya kollektiv xo'jaliklarini tashkil etish ma'muriy majburlash tusini olmasligi haqida ogohlantirdi [4;2].

Kooperatsiyaning maqsad va vazifalari mehnatkash dehqonlarga tushunarli bo'lib, ular mayda tovar ishlab chiqarishning manfaatlari va shart-sharoitlariga mos kelardi. Shu sababli dehqonlar kooperativ tashkilotlarga ixtiyoriy ravishda a'zo bo'la boshladilar. Kooperatsiya tez orada qishloq aholisining keng qatlamlarini qamrab olgan ommaviy tashkilotga aylana boshladi. Buni kooperativlar sonining o'sishi va dehqonlarning kooperativlashuv darajasining oshishi haqidagi ma'lumotlardan ko'rish mumkin. Qishloq xo'jalik kooperatsiyasida 1920-yilda butun mamlakat bo'yicha 12,8 ming, 1921-yilda 24 ming, 1923-yilda 31,2 ming, 1924 yilda 37,9 ming, 1925 yilda esa 54,8 ming kooperativ mavjud edi. 1925-yilda u SSSRdagi 6,5 million (yoki 28 foiz) dehqon xo'jaliklarini birlashtirgan edi. Qishloqda matlubot kooperatsiyasi ham rivojlandi. 1925 yil oktabr oyiga kelib, matlubot kooperatsiyasi 25,6 ming qishloq matlubot jamiyatlaridan iborat bo'lib, 9 milliondan ortiq (yoki 22,7 foiz) dehqon xo'jaliklarini o'z ichiga olgan edi [5;55].

Yangi iqtisodiy siyosat mehnatkashlarning shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarini oqilona qovushtirish yo'lini topdi. Turkiston kommunistik partiyasining VI konferensiyasi ta'rifiga ko'ra, "ushbu maqsadga erishishning asosiy vositasi hamda erkin bozorni boshqarishning vositasi kooperatsiya bo'lmog'i lozim" edi [6;187]. Mahsulot tayyorlash, mahalliy sanoatni, qishloq xo'jaligini har tomonlama rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochuvchi kooperatsiyaning barcha turlarini qo'llab-quvvatlash zarurliligini ta'kidlab, Turkiston hukumati ishlab chiqarish sohasidagi: irrigatsiya, melioratsiya ishlaridagi, dehqonchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi, shuningdek, qishloq xo'jalik va hunarmandchilik ishlab chiqarishi vositalari hamda mahsulotlarini tayyorlash va sotish bo'yicha kooperativ uyushmalarga ko'maklashishga birinchi navbatda e'tibor qaratdi.

Turkistonda kooperatsiyaning turli xillari mavjud bo'lib, ular orasida kredit va ta'minot-sotish vazifalarini bajaruvchi eng oddiyarlari ustunlik qilgan. Bu paytda eng ko'p tarqalgan qishloq xo'jalik shirkatlari qishloq xo'jalik kooperatsiyasining boshlang'ich shakli edi. Kooperativ tarmoqning o'sishi tez sur'atlarda kechdi. Agar 1923-yilda Turkiston ASSRda 58 ming dehqonni birlashtirgan 314 ta kredit shirkatlari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, keyingi yilda ularning soni 912 taga, a'zolari soni esa 233,5 ming kishiga yetdi [7;20].

1921-yilda Turkiston respublikasi hududida qishloq xo'jaligi kooperatsiyasining yana bir shakli – paxta kooperatsiyasi faoliyat ko'rsatardi. U 1919-yil boshida Paxtachilik qo'mitasi tashabbusi bilan tashkil etilgan bo'lib, uning vazifalari juda sodda va dehqonlar uchun tushunarli edi. Paxta kooperatsiyasining vazifalari qatoriga quyidagilar kirardi: Paxta qo'mitasi bilan paxtakor dehqonlar o'rtasida vositachilik asosida paxta ekishni uyushtirish, kooperativ a'zolariga Paxta qo'mitasi ajratgan pul mablag'larini tarqatish, paxtakorlarning majburiyatlarini bajarishiga kafolat berish, paxta yig'im-terimi va paxta topshirilishini nazorat qilish. 1921-yilda Turkistonda

60 ta ana shunday paxta kooperativi mavjud bo'lib, ular 122 ming paxtakor dehqonni birlashtirgan edi.

1921-yil kuzida RSFSR Xalq Komissarlari Soveti qoshida Bosh paxta komiteti (Glavxlopkom) tashkil etildi. Hukumat Bosh paxta qo'mitasiga paxtachilikni tiklash va rivojlantirish, davlat organlarining paxtachilik sohasidagi faoliyatini tashkil etish, birlashtirish va tartibga solish hamda kooperatsiyani jalb qilish vazifasini topshirdi. Barcha paxta zaxiralari, paxta sanoati va urug'chilik plantatsiyalari Glavxlopkom tasarrufiga o'tkazildi. Glavxlopkom respublika paxta tashkilotlari va paxta kooperatsiyasi faoliyatini birlashtirib, ular ustidan umumiy va yagona rahbarlikni amalga oshira boshladi.

Bosh paxta qo'mitasi keng qamrovli tovar ayirboshlash asosida paxtani muvaffaqiyatli shartnomalashtirdi, xom paxta tayyorlash va uni to'qimachilik sanoatiga yetkazib berishni yo'lga qo'ydi. Ayirboshlash uchun u g'alla, manufaktura va boshqa keng iste'mol mollari Turkistonga keltirar edi. Quyidagi ma'lumotlar Paxta qo'mitasining tovar ayirboshlash bo'yicha operatsiyalari ko'lamini ko'rsatadi: faqatgina 1923-yilning bahorida u Turkiston ASSRga paxta kontraktatsiyalari uchun 15 million pudgacha bug'doy va 8 million metrgacha manufaktura olib keldi. Paxta yetishtiruvchi dehqon xo'jaliklariga arzonlashtirilgan narxlarda bug'doy, gazlama va boshqa mahsulotlar berib borildi [8;63].

Turkistonda qishloq xo'jalik kooperatsiyalarini tashkil etish, uning faoliyat yo'nalishlarini kengaytirishda Turkiston ASSR MIK juda katta ishlarni amalga oshirdi. Xususan, paxtachilik kooperatsiyasi vakillarining 1922-yil fevralda bo'lib o'tgan Ta'sis syezdi qaroriga binoan, paxtachilik kooperatsiyasi qayta tashkil qilinib, qishloq xo'jaligiga doir hamma ishlar bilan shug'ullanadigan kooperativ shirkatlarga aylantirildi. 1923-yilning o'rtalarigacha Turkiston ASSRda 247 ta qishloq xo'jalik shirkati tuzildi. Shulardan 169 tasi Sirdaryo oblastida va 71 tasi Farg'ona oblastida tashkil etildi. Qishloq xo'jalik kooperatsiyasini yanada rivojlantirib, qishloq aholisini bu kooperatsiyaga tortish asosiy vazifa qilib belgilandi.

Turkiston ASSR kompartiyasi Markaziy Komiteti Ijroiya byurosining 1922-yil 5-dekabrdagi yig'ilishi qarori bilan respublikadagi barcha kooperativ ishlarini muvofiqlashtirish vazifasi Turkiston Iqtisodiy Soveti zimmasiga yuklatildi. Qarorda: "Turkiston respublikasida qishloq xo'jaligi kooperatsiyasini tashkil etishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bunda kooperatsiyalashayotgan ommaning e'tiborini mahalliy hududlarda ustunlik qiluvchi ekinlar atrofida jamlash kerak. Xususan, Turkiston respublikasining asosiy ekinlaridan biri bo'lgan paxtani nazarda tutgan holda, paxta kooperatsiyasini tashkil etishga alohida e'tibor qaratish g'oyat muhim deb topilsin. Shu maqsadda qishloq xo'jaligi va paxta kooperatsiyasining tegishli kuchli markazini tashkil etish hamda u yerga zarur miqdordagi xodimlarni jo'natish lozim" deyilgan edi.

Ushbu ko'rsatmalar asosida Turkistonda yangi qishloq xo'jalik kooperativlari tashkil etish ancha jonlandi. Bu borada 1922-yil aprel oyida tashkil etilgan Farg'ona oblast qishloq xo'jaligi ittifoqining faoliyati xarakterli bo'ldi. Uning boshqaruvi mahalliy partiya tashkilotlarining yordamiga tayanib, 1922-yil aprel-sentabr oylarida oblast uyezdlarida sakkizta qishloq xo'jaligi kooperativini tashkil etdi. Ular Isfara, Qaynar, Aravon, Konibodom, Kuchpak, Andijon, Jalolobod va Marg'ilon kooperativlari edi. Ularga anchagina moddiy va moliyaviy yordam ko'rsatildi. Masalan, 1922-yil may oyida oblast qishloq xo'jaligi ittifoqi boshqaruvi oblast yer bo'limidan 450 pud guruch olib, uni qishloq xo'jaligi kooperativlariga qarz sifatida taqsimladi. Shundan so'ng, "Turksoyuz" Farg'ona qishloq xo'jaligi kooperativlari ehtiyojlari uchun 3 milliard rubl (1922-yilgi pul ko'rinishida) ajratdi, bu mablag' asosan kooperativlarga kredit yordamini tashkil etish uchun ishlatildi [9;27].

1923-yil o'rtalarida Turkistonda paxtachilikka ixtisoslashgan 247 ta qishloq xo'jalik shirkatlari tuzildi, shulardan 169 tasi Sirdaryo viloyatiga, 71 tasi esa Farg'ona viloyatiga to'g'ri kelardi. Asosiy vazifa qishloq xo'jalik kooperatsiyasini rivojlantirib, qishloq aholisining eng keng qatlamlarini qamrab olishdan iborat edi.

1921-yil 3-avgustda RSFSR Mehnat va Mudofaa Sovetining "Melioratsiya shirkatlari to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. Bu qaror sovet melioratsiya qonunchiligiga asos soldi. Qarorda shunday deyilgan edi: "Melioratsiya shirkatlarini tashkil etish birinchi darajali davlat ahamiyatiga ega ish deb tan olinsin. Yer ishlari xalq komissarligiga... shirkatlarni ommaviy miqyosda tashkil etish va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha shoshilinch choralar ko'rish vazifasi yuklatilsin" [10;295].

1922-yil oxirida sovet hukumati Turkiston Respublikasiga irrigatsiya qurilishi uchun 6 million oltin rubl ajratdi. Boshlangan tiklash ishlari suvdan foydalanuvchilarni alohida jamoalarga birlashtirdi. Melioratsiya-kooperativ harakatni rivojlantirish maqsadida Turkiston respublikasi Xalq Komissarlari Soveti 1923-yil 2-mayda "Melioratsiya kooperatsiyasi to'g'risidagi Nizom"ni qabul qildi, 1923-yil 29-aprelda esa "Melioratsiya shirkatining namunaviy ustavi"ni tasdiqladi [11;134].

O'rta Osiyodagi dastlabki melioratsiya shirkatlari O'zbekiston hududida Sirdaryo viloyatida, Dalvarzin kanali bo'ylab tashkil topgan. 1923-yil 15-avgustdan 5-dekabrgacha dehqonlar To'qachi, Xos, Kal-Qorait, Sretensk, Sart-Yuz va Qashqir melioratsiya shirkatlarini tashkil etishdi va 1923-yil 31-dekabrda ular Dalvarzin melioratsiya shirkatlari ittifoqiga birlashdi.

Turkiston ASSRda irrigatsiya inshootlari qurish va ekinzorlarni nasoslar yordamida sug'orishni tashkil etish bilan shug'ullanayotgan melioratsiya shirkatlari 1923-yilning oxiriga kelib 29 taga yetdi. 22 ming 160 xo'jalikni o'z ichiga olgan bu shirkatlarga 54 ming 220 desyatina sug'oriladigan yer va 127 ming 850 desyatina sug'orilmaydigan yer biriktirib quyilgan edi. Bu

shirkatlar Turkiston ASSRda irrigatsiya va paxtachilikni qayta tiklashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, mamlakatning markaziy hududlaridan farqli o'laroq, 1921-yilda Turkiston respublikasida ta'minot-sotish kooperatsiyasi rivojlanmay qoldi. Buning sababi, partiya, sovet va kooperativ xodimlari orasida uning vazifalari va iste'mol kooperatsiyasidan farqi haqida aniq tushuncha yo'qligi edi. Partiya-sovet xodimlarining aksariyati o'sha paytda ta'minot-sotish kooperatsiyasining ishlab chiqarish kooperatsiyasiga o'tishning tayyorgarlik bosqichi sifatidagi ahamiyatini tushunmas va uni ko'pincha iste'mol kooperatsiyasi bilan tenglashtirar edi. Shu sababli, joylardagi partiya va sovet organlari asosiy e'tiborni iste'mol kooperatsiyasini rivojlantirishga qaratdilar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Иванов Б.В. Осуществление ленинского кооперативного плана в Сибири (1920–1927 гг.). – Томск, 1977. – С. 117.
2. История крестьянства СССР. История советского крестьянства. В 5 томах. Том 1. Крестьянство в первое десятилетие Советской власти. 1917 – 1927. Отв. ред. Г.В. Шарапов. – Москва: Наука, 1986. – С. 88-89.
3. Farg'ona viloyat davlat arxivi (Farg'ona VDA), 323-fond, 1-ro'yxat, 256-ish, 12-13-varaqlar.
4. Красная Фергана, 1921 г. 13 июля.
5. 40 лет советской потребительской кооперации. 1917-1957 гг. Под ред. П.К. Юдина. – Москва: Изд-во Сентросоюза, 1957. – С. 55.
6. Коммунистическая партия Туркестана в резолюциях и постановлениях съездов и конференций. – Ташкент: Узбекистан, 1988. – С. 187.
7. O'z MA, R-1236-fond, 1-ro'yxat, 678-ish, 20-28-varaqlar
8. Ризаев Г.Р. Сельское хозяйство Узбекистана за 40 лет. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1957. – С. 63.
9. Farg'ona VDA, 435-fond, 1-ro'yxat, 101-ish, 27-28-varaqlar
10. Баторевич И.Ф. Сельские мелиорации. Роль и организация мелиоративных товариществ. Мелиоративный кредит и его получение. – Москва, 1926. – С. 295-297.
11. O'z MA, R-25-fond, 1-ro'yxat, 756-ish, 134-varaq.